



**MARKAZIY OSIYODA HANAFIYLIKNING KENG
TARQALISHIDA MAVOROUNNAHRLIK ULAMOLARNING
QO‘SHGAN HISSASI**

Aminjonov Asadullojon Qudratillo o‘g‘li

“Hadis ilmi maktabi” o‘qituvchisi

Annotatsiya

Hanafiy mazhabi rivojida Markazi Osiyo (Movarounnahr) faqihlarining o‘rni beqiyosdir. X-XII asrlar davomida yaqin sharq mamlakatlarida shialik tazyiqi ostida so‘nib borgan hanafiy markazlari Saljuqiylar, Usmoniylar hukmronligi davrida aynan Movarounnahr hanafiylari qaytadan tikladilar. Ular barcha yangi markazlar uchun ustoz bo‘lib qoldilar.

Kalit so‘zlari: *Hanafiylik, tarix, Movarounnahr, Markazi Osiyo.*

Tarixdan ma’lumki, bizning yurtimizdan qanchadan qancha allomalar, mutafakkirlar, davlat va jamoat arboblari yetishib chiqqanlar. Markaziy Osiyo xalqlarining jahonda yuksak obro‘-e’tiborga erishishida, o‘z nomiga ega bo‘lishida, dunyo sivilizatsiyasiga munosib hissa qo‘shishida ularning mehnatlari beqiyosdir.

Movarounnahr azaldan ilmu ma’rifat taraqqiy topgan maskan bo‘lib kelgan. Bu yurt butun dunyoga tatigulik olimlar, mutafakkirlar, mujtahidlarni tarbiyalab, yer yuziga ilm ziyosini taratgan diyori. Unda falakiyot, handasa, tibbiyot kabi tabiiy fanlar bilan bir qatorda fiqh, tafsir, kalom, hadis singari diniy-ijtimoiy fanlar ham rivoj topgan.

Hanafiy mazhabi rivojida Markazi Osiyo (Movarounnahr) faqihlarining o‘rni beqiyosdir. X-XII asrlar davomida yaqin sharq mamlakatlarida shialik tazyiqi ostida so‘nib borgan hanafiy markazlari Saljuqiylar, Usmoniylar hukmronligi davrida aynan



Movarounnahr hanafiylari qaytadan tikladilar. Ular barcha yangi markazlar uchun ustoz bo'lib qoldilar.

X-XIII asrlarga kelib, fiqh rivoji yuksak pog'onaga ko'tarili. Qoraxoniylar (999-1212) davri faqihlari umumislom darajasida shoh asarlar yaratib, hanafiy mazhabi klassikalari mavqeiga erishdilar. Haqiqatan ham Movarounnahr hanafiy mazhabining "qal'asi" edi, desak adashmaymiz. Sadrlar, ar-Rig'da-Muniy, az-Zaranjariy, al-Mahbubiy, as-Saffor, al-Pazdaviy, Samarqand sayyidlari, al-Xayzoxaziy, al-Aqiliy, al-Marg'inoniy oilalari ilmiy va ijtimoiy hayotda kuchli mavqega ega bo'ldilar.

Hanafiy mazhabi IX asrda Imom A'zam Abu Hanifaning iqtidorli va mashhur shogirdi bo'lgan Imom Muhammad ibn Hasan ash-Shayboniyning iste'dodli shogirdlari Abu Sarayman Juzjoniyy va Abu Xafs Kabir Buxoriylarning shogirdi Abu Bakr Juzjoniyy xizmatlari orqali Movarounnahrda kirib keldi.

Movarounnahr nafaqat fiqh ilmi, balki islom huquqining ikkinchi manbai hisoblangan hadis markazi ham edi. Buyuk allomalarimizdan Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom ad-Dorimiy as-Samarqandiy kabi olimlar islom olamida mashhur bo'lgan hadis to'plamlarini yaratdilar.

Fiqh va usulul fiqh bo'yicha hanafiy mazhabi Markazi Osiyoda o'zining asosiy va yirik homiylariga ega bo'ldi. Qoraxoniylar davri fiqh ilmi va hanafiy mazhabining oltin davri edi.

Manbalarda berilgan ma'lumotlarga ko'ra, bo' davrda 300dan ortiq faqih istiqomat qilib, 150 dan ko'proq fiqhiy asarlar, jumladan 20 ta fatvo kitoblarini bitganlar, ularning mutlaq ko'pligi Hanafiy mazhabi asosida yozilgan edi.

Ajdodlarimiz qoldirgan boy ilmiy meros hanuz o'z qadrini saqlab kelmoqda.

Yurtimizda Abu Hanifa No'mon ibn Sobitta'limoti asosidagi hanafiylik keng tarqalgani bois, bu mazhabga oid ilm sohalarida yuzlab allomalar faoliyat olib borgan.



Movarounnahrga hanafiy fiqhini olib kirgan olim Ahmad ibn Abu Hafs al-Kabir al-Buxoriy Buxoroda 150/767-yil tavallud topgan¹. U fiqh ilmini Muhammad ibn Hasandan o'rgangan. Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy Abu Hafs al-Kabir zamonida avval Nishopurga, so'ngra Buxoroga kelgan.

Abu Hafs al-Kabir (katta) deyilishining sababi uning o'g'li Abu Hafs as-Sag'ir (kichik) deb nomlangan. Shu bois o'g'liga nisbatan uning otasi Abu Hafs al-Kabir deb atalgan. Abu Abdulloh Shamsuddin az-Zahabiy "Siyar a'lom an-nubalo" nomli kitobida Abu Hafs as-Sag'ir 14-tabaqaga mansub muhaddislardan degan ma'lumotni keltiradi².

Abu Hafs Kabir qo'lida ko'pgina faqihlar va olimlar yetishib chiqqan. Hatto tarixchilarning ta'kidlashlaricha, Buxoroda ilmning tarqalishiga, imom va ulamolarning hurmat topishiga aynan shu olim sababchi bo'lgan. Sam'oniyning aytishicha, Abu Hafs ko'pgina faqihlarni tarbiyalab kamolga yetkazgan. Ular "Xarojir" degan joyga mansub bo'lganlar.

Abu Hafs Kabirning shuhrati butun Buxoroga, qolaversa, butun islom olamiga tarqaladi. Narshaxiyning aytishicha, hojilar karvoni kelayotganida, karvondan bir kishi Abu Hafsning yoniga kelib, undan masala so'ragan ekan. Abu Hafs hayratlanib: "O'zingku Iroqdan kelyapsan, nima uchun Iroq olimlaridan so'ramading?" – deb so'rasa, u kishi esa: "Bu masalada Iroq olimlari bilan munozara qildim, lekin ular javob bera olmadilar va menga Buxoroga borib, bu masalani Abu Hafsdan yoki uning farzandidan so'ragin, ular senga bu masalaning javobini aytishadi deyishdi", – deb javob beradi³.

Olimlar uning ilmu fazlini baholab, uni "muallimi islom", ya'ni islom dinining muallimi, uning sharofati bilan Buxoroni "Qubbatu-l-islom", ya'ni islom dini gumbazi

¹ Abdulkarim Sam'oniyy. Nasabnoma Abdulg'affor Razzoq tarjimasi. Buxoro, 1999. – B. 37.

² Shamsiddin az-Zahabiy. Siyar a'lomi-n-nubalo. J.10. Muassastu-r-risola. Bayrut, 1985. –B. 158.

³ Narshaxiy. Buxoro tarixi. – T.: Sharq bayozi, 1993. – B.5354.



va u kishi yashaydigan mahalla darvozasini “Haqroh”, ya’ni haq yo‘l deb atashgan ekan. Alloma 216/832-yilda vafot etgan⁴.

Buxorolik faqih olimlardan yana biri Abdulloh as-Subazmuniy Buxoroning Subazmun qishlog‘ida tavallud topgan. Uning to‘liq ismi Abdulloh ibn Muhammad ibn Ya‘qub ibn al-Horis ibn al-Xalil al-Ustoz al-Imom al-Hofiz al-Faqih as-Subazmuniy al-Horisiy al-Kaloboziydir. U 258/872-yili rabi’ al-oxirning chorshanba kuni tavallud topgan⁵.

Faqihning “Musnad” va “Kashf al-osor fi manoqib Abi Hanifa” kabi asarlari mavjud. “Kashf al-osor” asrida ko‘plab fiqhiy fatvolar kelganki, bu orqali VIII-X asrlardagi fiqhga oid ma’lumotlarni olish mumkin.

Alloma 340/952-yili shavvol oyining beshinchi kuni jumada vafot etgan. Uning tug‘ilgan va vafot etgan yillari xususida ixtiloflar yo‘q. Uning qabri o‘zi tug‘ilib o‘sgan qishloq Subazmundadir⁶ (hozirda Buxoro shahri chetida).

Hanafiylikning yorqin namoyondalaridan yana biri Abu Lays Samarqandiydir. U 298/911-yil Samarqandda tug‘ilib, 375/985-yil shu yerda vafot etgan. U fiqh, tafsir ilmlari va va’z-nasihath janriga oid katta ilmiy meros qoldirgan. Allomaning hayoti asosan Samarqandda o‘tgan. Tarixiy manbalarda Abu Lays “faqih”, “zohid”, “mufassir”, “hikmatli so‘zlar sohibi” kabi sifatlar bilan ta’riflanadi⁷. Darhaqiqat, Samarqandiy fiqh sohasida hanafiy mazhabi ulamolari so‘zlarini jamlagan, Movarounnahrda fiqh ilmi, hanafiy mazhabi rivojiga katta hissa qo‘shgan. Shu bois “al-faqih” nomiga sazovor bo‘lgan. Alloma “Tanbih al-g‘ofilin”, “Buston al-orifin” asarlarini mav’iza va pand-nasihath shaklida yozgan. U mansabdan yiroq bo‘lib, hayotini asosan ilmga bag‘ishlagani uchun unga “zohid”, “hikmatli so‘zlar sohibi”

⁴ O‘sha manba. – B. 55.

⁵ Muratov D. Faqih Abdulloh as-Subazmuniy hanafiy muhaddisi-mi? // Imom al-Buxoriy saboqlari. – T.: 2004, – № 3. – B. 232.

⁶ Muhammad Abdulhay al-Laknaviy. Al-Favoid al-bahiyya. – Bayrut, 1998. – B. 291.

⁷ Abu Sa‘d Abdulkarim ibn Muhammad ibn Mansur at-Tamimiy as-Sam‘oniy. Al-Ansob. J.1. Doru-l-fikr. Bayrut, 1998. – B.515.



nomlari berilgan. Abu Lays shuningdek, “bahs-munozaralarda tengi yo‘q olim” sifatida e’tirof etiladi. Bu nom uning hanafiy mazhabini himoya qilishga qaratgan harakati uchun berilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, IX-X asrlarda Movarounnahrda hanafiy mazhabi rivojlanish va kuch yig‘ish bosqichini boshdan kechirgan. Ilm markazlaridan bo‘lgan Buxoro va Samarqandda hanafiy fiqhi an‘analari ma’lum darajada o‘rnatilganligini kuzatish mumkin.

O‘sha davrda yashab ijod etgan olimlarning boy ilmiy merosini tadqiq etish hanafiylikning bag‘rikenglik tamoyillariga asoslanganini anglab yetishga va bugungi kundagi ba’zi muammolarning yechimini topishga yordam beradi. Shu bois ham bu kabi allomalarimizning hayoti va ilmiy merosi bilan tanishib borish tadqiqotchilar uchun o‘z dolzarbligini yo‘qotmaydi.